



UDK:37.015.6(075)

## TALABALARING PSIXOLOGIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

*Ismatillayeva Mahliyo Muzaffar qizi**"Profi University" nodavlat olyi ta'lismuassasasi**Navoiy filiali Pedagogika fani o'qituvchisi**Qambarova Nasiba Qambarovna**"Profi University" nodavlat olyi ta'lismuassasasi**Navoiy filiali Pedagogika fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada olyi ta'lismuassasalari talabalarning psixologik ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'limga tekhnologiyalarning imkoniyatlari, foydalanish usullari keltirilgan. Shuningdek, taklif etilayotgan metodikalarning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borilgan. Tajriba-sinovda olingan natijalarini xi kvadrat kriteriyasidan foydalanib, tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar.** Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga tekhnologiyasi, Kichik guruhda ishslash, Case-Study, Xi kvadrat.

**KIRISH.** Olyi ta'lismuassasalarida pedagogika-psixologiya ta'limga yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchilarning psixologik ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'limga insonparvarlashtirish, uzviyligi va uzlucksizligi, rivojlantiruvchi hamda ijtimoiylashtiruvchi maqsadlarini ta'minlash, shuningdek, ta'limga natijalarini baholash samaradorligini oshirish usullarini takomillashtirish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Bu kabi muammolarning yechimlaridan biri, zamonaviy ta'limga tekhnologiyalarini, shu jumladan "Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga" va "Case" tekhnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Shu bois, ushbu tekhnologiyalarning imkoniyatlarini va psixologiya fanlardan mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'llashni ko'rib chiqamiz.

### Tadqiqot metodolgiyasi.

**Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga tekhnologiyasi.** Olyi ta'lismuassasalarida talabalarning psixologik ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'limga tekhnologiyalaridan biri hisoblangan, ya'ni shaxsga yo'naltirilgan ta'limga tekhnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ta'limga tekhnologiyasining muhim jihatlaridan biri har bir talabaning individual psixologik-kognitiv qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish uchun maqbul tashkiliy-pedagogik sharoitlarni yaratadi.



Shu bilan birga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim talabadagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarni tarbiyalaydi. Bunda talabaning ta’lim tizimiga, shu jumladan, psixologiya fanlarga oid ta’lim olishga moslashtirmay, balki ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil o‘qish, o‘zligini namoyon etish, faollashtirish xususiyatlari asosida anglash, mushohada qilish, o‘z amaliy faoliyatida sinab ko‘rish, yangi g‘oya va fikrlarni bildirish, mavjud psixologik muammolar yechimining samarali yo‘llarini qidirishda erkinlik berish, talabaning ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi. Har qanday talaba o‘ziga xos takrorlanmas tabiat, xarakter xususiyatini faollashtirishga, namoyish qilishga intiladi. Bunda professor-o‘qituvchi psixologik fanlarga oid mashg‘ulotlarda talabalar ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar (muammoli-izlanish, tadqiqot, dialog, evristik suhbat, munozara, guruhlarda ishlash)dan foydalanib, shunday shart-sharoitlarni tarkib toptirishi lozimki, natijada talaba uchun dastlab neytral bo‘lgan ob’yekt kutilmaganda sub’yektiv xususiyat kasb etsin. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim psixologiyaga oid mashg‘ulotlarni loyihalashning o‘ziga xos tomonlarini hisobga olishni, ya’ni talaba shaxsi modeliga avvaldan belgilab qo‘yilgan talablardan yiroq bo‘lishni taqozo etadi [1].

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasining asosiy g‘oyasi quyidagilardan iborat:

1. har bir talabaning individual bilish qobiliyatini rivojlantirish;
2. o‘quv jarayonida talabaning sub’yektiv tajribasini maksimal darajada aniqlash va undan foydalanish;
3. talabaning nafaqat o‘zini bilishida, o‘zini o‘zi belgilashda va o‘zini o‘zi anglashda yordam berish, balki unda oldindan belgilangan xususiyatlarni shakllantirish.

Ushbu maqsadlarga erishishning asosiy vositalari quyidagilar bo‘lishi kerak:

- talabalarning psixologiya fanlariga oid o‘quv faoliyatini tashkil etishning turli usullari va shakllaridan foydalanish, ularning sub’yektiv tajribasini ochishga imkon berish;
- har bir talabaning o‘z mehnati natijalariga ham, butun auditoriya ishining natijalariga ham qiziqish muhitini yaratish;
- talabalarni professor-o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berishga, munozaralarda ishtiroy etishga, muammoli masala yoki topshiriq yuzasidan o‘z yechimini ifodalash va ishonchli himoya qilishga, xato qilishdan, noto‘g‘ri javob olishdan qo‘rmasdan topshiriqlarni bajarishning turli usullaridan foydalanishga undash;
- mashg‘ulot vaqtida talabaga o‘zi uchun ta’lim mazmunining eng muhim turlari va shakllarini tanlash imkonini beruvchi didaktik materialdan foydalanish;

- talaba faoliyatini nafaqat yakuniy natija, balki shu natijaga erishish jarayoni bilan ham baholash;
- talabaning o‘z ish usullarini topishga, boshqa talabalarning ish yo‘llarini tahlil qilishga, o‘rganishning eng oqilona usullarini tanlash va o‘zlashtirishga intilishlarini rag‘batlantirish.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini psixologiya fanlarini o‘qitishda qo‘llash orqali professor-o‘qituvchi talabalarining pedagogik va psixologik xususiyatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga amal qilishi va o‘quv jarayoniga uning rivojlanish yo‘nalishi bilan belgilanadigan shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga yordam berishi kerak. Bunda talabalarning ishlab chiqilgan virtual modeli tomonidan berilgan va asosan umumi kompetensiyalar bilan ifodalangan o‘quvchi shaxsining individual aqliy xususiyatlarini tuzatish hamda rivojlantirishga qaratilgan pedagogik va psixologik ta’sirlar tizimi shaxsiy xususiyatlar sifatida tushuniladi.

Umumlashtirilgan shaklda ular talabaning atrofdagi jamiyatda yashash, uning keyingi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallah va mehnat qobiliyatlarida o‘z majburiyatlarini bajarish. Talaba shaxsiyatini o‘rganish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- talabaning “o‘quv xaritasi”ni ishlab chiqish;
- talaba shaxsi rivojlanish dinamikasini o‘rganish va aniqlash;
- talaba rivojlanishining bashoratli vektorini real natija bilan bosqichma-bosqich taqqoslash.

psixologiya fanlarini o‘qitishda va talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy g‘oyasi har bir o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha ularning hayotiy faoliyatini sub‘yektiv tajribasi mazmunini ochib berish, uni mavzuning ilmiy mazmuniga moslashtirish va o‘quv materialini mustahkam o‘zlashtirish asosida, shaxsning individuallagini kengaytirish va boyitishdan iborat.

**“Kichik guruhdha ishslash” texnologiyasi.** Pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi – har bir talabaning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim olish imkoniyatini berishdir. Ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishi nafaqat bilim tashuvchisi, balki uning faol, o‘z-o‘zini tashkil etuvchi sub‘yekti bo‘lishga qodir shaxsning rivojlanishini ta’minlaydigan imkoniyatlarni izlash bo‘lishi kerak [2].

Oliy ta’lim muassalarida talabalarning psixologik bilimlarni egallah va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun faol, mustaqil va tashabbuskor dunyoqarashni shakllantiradigan o‘qitish usullari talab etadi. Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogikada o‘zini oqlagan guruhdagi differensiatsiya shakllaridan biri bu jamoaviy ishdir. Bunda trening mashg‘ulotlarini olib borishda, birinchi navbatda, talabalarni guruhlarga birlashtirish maqsadga muvofiqdir, bu ish shaklidan guruh testlarida, mustaqil ishlarda

foydanish orqali barcha didaktik muammolarni hal qilish mumkin. Bularni «Kichik guruhda ishlash» texnologiyasi yordamida faol amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

“Kichik guruhda ishlash” interfaol ta’limning samarali strategiyalaridan biridir, chunki u barcha talabalarga qo‘yilgan masalani yechishda birgalikda ishtirok etish, hamkorlik qilish ko‘nikmalarini, shaxslararo muloqotni, faol tinglash, nutqni va qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bunda umumiy fikr, kelishmovchiliklarni hal qilish orqali amalga oshiriladi. Kichik guruhlarda ishlash ko‘plab interfaol usullarning ajralmas qismidir, masalan, munozaralar, ommaviy tinglovlar va shu kabilalar [3]. Shuning uchun oliy ta’lim muassalarida fanlarni, shu jumladan psixologiya fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda “Kichik guruhda ishlash” texnologiyasidan foydanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bunda, ya’ni oliy ta’lim muassalarida psixologiya fanlaridan amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda “Kichik guruhda ishlash” texnologiyasidan foydanish uchun quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

1. talabalar guruh topshirig‘ini bajarish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega ekanligiga ishonch hosil qilish;
2. professor-o‘qituvchi o‘z ko‘rsatmalarini iloji boricha to‘liq va tushunarli tartibda bayon etishi lozim;
3. shuni yodda tutish kerakki, guruh bir vaqtning o‘zida bir yoki ikkitadan ortiq, hatto juda aniq ko‘rsatmalarini idrok eta oladi, shuning uchun ko‘rsatmalarini doska va (yoki) kartochkalarga yozib qo‘yish kerak;
4. guruhga psixologik treningdagi muammolarni yechishga oid beriladigan topshiriqlarni bajarish uchun yetarli vaqt berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida psixologiyaga oid berilgan vazifalarni bajarish bo‘yicha talabaga diqqatini chinakam hayajonli masalalarga qaratish, ish jarayoni va natijasi uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, o‘ziga ishonchni qozonish hamda intensiv muloqot davomida ishlab chiqilgan rejalarini amalga oshirishga intilish imkonii beriladi. Tavsiya etilayotgan texnologiyaning ahamiyati shundaki, ishtirokchi tomonidan taklif qilingan har qanday savol, hatto bitta tinglovchi muhokamani davom ettirishni talab qilsa ham muhokama qilinadi. Barcha muammolarning ustuvor yo‘nalishlari belgilanib, muhim masalalar aniqlanib, ularni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqiladi.

Shu bois, “Kichik guruhda ishlash” texnologiyasini psixologiya fanlarini o‘qitishda qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshirish lozim: auditoriyadagi talabalar kichik guruhlarga ajratiladi. Bunda talabalar soni 4-5 kishidan iborat bo‘lishi tavsiya etiladi. Guruhdagi talabalar turli bilimga ega bo‘lishi qat’iy talab etiladi. Ya’ni bir guruhda faqat a’lochi talabalar, boshqasida esa past o‘zlashtirayotgan talabalarga ajratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Har bir guruhga turli qiyinchilikdagi bir nechta topshiriqlar beriladi. Guruhning maqsadi iloji boricha ko‘proq muammolarni hal qilishdir. Agar javob doskada maxsus jadvalga yozilsa va guruhning barcha talabari daftarlarda muammoning yechimini yozgan bo‘lsa topshiriq to‘g‘ri bajarilgan hisoblanadi. Guruhda bir vaqtning o‘zida berilgan vazifalarni bajarish uchun topshiriqlarni o‘zaro taqsimlab olishga ruxsat etiladi. Qoidaga ko‘ra, past darajada o‘zlashtirayotgan talabaga hal qilinishi kerak bo‘lgan sodda vazifalar beriladi. Bu past o‘zlashtiruvchi talaba uchun fanga oid motivatsiyasini oshirish orqali u vazifani bajarishga yo‘naltiradi [4]. Har bir guruhga doskada bitta topshiriq beriladi. Shunday qilib, har bir talaba uchun 5 ta topshiriq yoziladi. Ish oxirida guruhning o‘zi o‘z natijasini hal qilingan vazifalar soni va har bir talaba guruhning natijasi bo‘yicha baholanadi. Bunda quyidagi baholash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi:

5 ta vazifa - 5.

4 ta vazifa - 4.

3 ta vazifa - 3.

Ushbu shakl psixolgiya fanlariga oid amaliy mashg‘ulotlarda ko‘p muammolarni hal qilishga imkon beradi. Eng muhimi, barcha talabalar o‘quv jarayoniga jalgan qilinadi.

Yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida oliy ta’lim muassalarida psixologiya fanlariga oid amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda «Kichik guruhlarda ishlash» texnologisidan foydalanganda quyidagi afzallikkarga erishiladi:

1. talabalarning psixologik treningga oid kognitiv motivatsiyasi oshadi.

2. muvaffaqiyatsiz bo‘lish qo‘rquvi, ba’zi psixologik muammolarni hal qilishda qobiliyatsizligi kamayadi.

3. psixologik muammoni birgalikda yechishga oid madaniyati shakllanadi.

4. kommunikativ qobiliyatları rivojlanib, keyingi hayotda turli qiyinchiliklarni yengishga o‘rganadi.

5. talabalarning butun guruhida psixologik muhitni yaxshilashga yordam beradi.

Shu bilan birga “Kichik guruhlarda ishlash” texnologiyasidan foydalanganda yuqorida keltirilgan afzalliklari bilan bir qatorda kamchiliklar ham mavjud. Past o‘zlashtirayotgan talaba, uning fikricha, muammolarni qanday hal qilishni yaxshiroq biladigan a’lochi talabaga tayanishi mumkin. Auditoriyada mustaqil ishlamaydi.

Bu kabi kamchiliklarni professor-o‘qituvchi bartaraf etishning o‘ziga xos usullarini topishi talab etiladi:

1. turli darajadagi tayyorgarlikka ega bo‘lgan talabalar bilan ishlash ma’lum bir usulni bilishni talab qiladi. Bunday guruhlarda birgalikdagi faoliyatni tashkil qilish kerak, shunda u barchani ishlashga majbur qiladi. Misol uchun, natija barcha talabalarning qanchalik faolligi bilan baholansa, bu maqsadga erishish mumkin.

2. vazifa shunday beriladiki, har bir talaba o‘ziga berkitilgan vazifani bajarish orqali qo‘yilgan muammoni yechishga yo‘naltiriladi.

3. guruhning har bir a'zosiga turli darajadagi murakkablikdagi vazifalarni guruhda keng muhokama qilishni taklif etish lozim.

4. guruhrar tarkibidagi talabalarning kuchiga qarab vazifalarni taqsimlash maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, oliy ta'lif muassalarida psixologiya fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda "Kichik guruhlarda ishlash" texnologiyasidan foydalanish professor-o'qituvchidan alohida tashkiliy harakatlarni talab qiladi. U birinchi navbatda talabalar intizomini yaxshi bilishi lozim. Har bir guruhning ishi professor-o'qituvchi nazoratida bo'lishi va bu ishga mohirlik bilan rahbarlik qilishi kerak: ish yo'nalishining to'g'rilingini tekshirish paytida o'z vaqtida yordam ko'rsatish, talabalarni hamkorlikda ishlashga undash, barcha nizolarda hakamlik qilishi kerak. Past o'zlashtirayotgan talabalarning ishini kuzatib borish, ya'ni yangi o'quv-ma'lumotlarni o'rganishda, ular faol mashg'ulotlarga kiritilishi lozim. Talabalarning bajargan ishlarini o'zaro tekshirishga undash lozim.

Professor-o'qituvchining bu kabi nazorat orqali psixologiya fanlaridan amaliy mashg'ulotlarini "Kichik guruhlarda ishlash" texnologiyasidan foydalanib tashkil etish samarali hisoblanadi. Bunda talabalarni mustaqillikka o'rgatish, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlash, muvaffaqiyatga e'tibor qaratish imkonini yaratiladi.

Shu bois, oliy ta'lif muasalarida psixologik fanlardan amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda va talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirishda "Kichik guruhlarda ishlash" texnologiyasidan foydalanish muhim sanaladi.

**"Case" texnologiyasi.** Bugungi kunda oliy ta'lif muassasalarida psixologiya fanlardan mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish va talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan biri hisoblangan "Case" texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. "Case" texnologiyasi talabaning shaxsiyatiga, o'z bilimlarini, shaxsiy va kasbiy ko'nikmalarini, shu jumladan jamoada ishlash va ijodiy muammolarni hal qilish madaniyatini oshirishga qaratilganligi bilan samarali hisoblanadi [5]. Shuning uchun "Case" texnologiyasini psixologiyaga oid fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda va talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llash lozim.

"Case" texnologiyasi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ushbu texnologiya M. Shever, F. Edey va C. Eatlar tomonidan ishlab chiqilgan va birinchi marta "Case" usuli 1910-yilda innovatsiyalar bilan mashhur bo'lgan Garvard biznes maktabida menejment fanlarini o'qitishda qo'llanilgan [6]. 90-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab esa "Case" texnologiyasi barcha rivojlangan davlatlarning ta'lif tizimida keng ko'lama qo'llanila boshlandi [7].

"Case" texnologiyasi haqiqiy iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatlarning tavsifidan foydalanadigan o'qitish texnikasi hisoblanib, bunda talabalar vaziyatni tahlil qilishlari,

muammolarning mohiyatini tushunishi, mumkin bo‘lgan yechimlarni taklif qilish va eng yaxshisini tanlashni talab etadi [8].

Bu borada M.A. Lavrikovaning fikriga ko‘ra, “Case” texnologiyasida ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy muammolarni o‘z ichiga olgan vaziyat og‘zaki, yozma o‘qitishning texnik vositalari yordamida taqdim etiladi. Mazkur texnologiya fanlarni, shu jumladan psixolgiya fanlarini o‘qitishda qo‘llanilganda quyidagi imkoniyatlar yaratiladi [9]:

- ta’lim oluvchining analistik, ijodiy, tanqidiy fikrlashi rivojlantiriladi;
- ta’lim oluvchining muqobil yechimlarni topish madaniyati shakllantiriladi;
- baholash va qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi;
- ta’lim oluvchilarning guruhda ishlash madaniyati shakllantiriladi.

Y.V. Butilyevaning fikriga ko‘ra, “Case” texnologiyasi bu – aniq vaziyatni tahlil qilish, fanga oid olingan bilimlarni va uni amalda qo‘llash bo‘yicha motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, har bir talabaning muammoni yoki vazifani hal qilish uchun maksimal darajada ishtirok etishiga yo‘naltiradi. Buning natijasida talabalar quyidagi natijalarga erishadi [8]:

- qo‘yilgan ma’lumotlarni tahlil qilish;
- asosiy muammolarni aniqlash;
- optimal yechimni tanlash va h. k.

Keltirilgan olimlarning fikrlarini tahlil etish asosida psixologiya fanlarni o‘qitishda va talabalarning psixologik trening ko‘nikmalarini rivojlantirishda “Case” texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelish mumkin.

Shu bois, talabalar tomonidan psixologiya fanlarni o‘zlashtirish jarayonida o‘qitishning interfaol usullaridan, xususan “Case” texnologiyasidan foydalanish muhimdir.

Ushbu texnologiyaning mohiyati o‘quv faniga oid muayyan muammoni talabalar tomonidan birgalikda tahlil qilish, muhokama qilish yoki qaror qabul qilish uchun aniq holatlardan foydalanishdir. Ushbu texnologiya yordamida bir vaqtning o‘zida nafaqat amaliy muammoni (psixologik xarakterdagi muammolarni) hal qilish nazarda tutiladi, balki fanning muammoli mavzusini ko‘rib chiqishda olinishi lozim bo‘lgan ma’lum bilimlar to‘plami yangilanadi, shuningdek, o‘quv, tahliliy va ta’lim faoliyatini muvaffaqiyatli birlashtiriladi.

O‘z navbatida, bu texnologiya ta’lim tizimining zamonaviy vazifalarini amalga oshirishda faol va samarali vositadir. Shu bois “Case” texnologiyasidan foydalanib psixologiya fanlarni o‘qitishda quyida 1-jadvalda keltirilgan bosqichlardan foydalanishni tavsiya etamiz .

1-jadval.

**“Case” texnologiyasidan foydalanish bosqichlari**

Ish bosqichlari	Professor-o‘qituvchining harakatlari	Talabalarning harakatlari
<b>Mashg‘ulotdan oldin</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ishni tayyorlash.</li> <li>2. Talabalarni tayyorlash uchun asosiy va yordamchi materiallarni aniqlash.</li> <li>3. Dars ssenariysini ishlab</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ish va qo‘srimcha materiallarni qabul qilish.</li> <li>2. Tanlangan holatga qarab guruhlarga o‘z xohishiga ko‘ra taqsimlanish va kelgusida guruh ishini muvofiqlashtiruvchi liderni tanlash.</li> <li>3. Auditoriyada ishni ko‘rib chiqishga individual tayyorgarlik.</li> </ol>
<b>Mashg‘ulot davomida</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ishning dastlabki muhokamasini tashkil etish.</li> <li>2. Ishni muhokama qilish jarayonini boshqarish; Bunda quyidagi yordamchi ma’lumotlardan foydalilanadi: filmlar, diagrammalar, statistik materiallar.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Har bir guruhnинг mazmunli va muammoli taqdimoti, holat savollari.</li> <li>2. Shaklda aniq vaziyatni muhokama qilish «davra suhbati», unda ishtirokchilar aniq takliflarni qilish uchun kiritilgan takliflarning tegishli qiyosiy tahlilini o‘tkazadilar.</li> <li>3. Yakuniy qaror qabul qilishda ishtirok etish.</li> </ol>
<b>Mashg‘ulotdan so‘ng</b>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Talabalarning ishini baholash.</li> <li>2. Bajarilgan topshiriqni yozma ravishda baholash.</li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yozma matn tuzish, taraqqiyot hisoboti.</li> </ol>

Ushbu tavsiya etilayotgan jadvaldan foydalanib, mashg‘ulotlar o‘tkazish oddiy o‘quv mashg‘ulotlaridan farq qiladi, chunki bunda haqiqiy psixologik muammoga asoslanadi. Shunday qilib, “Case” texnologiyasining quyidagi o‘quv vazifalari ajralib turadi:

- psixologik vaziyatlarni, statistik manbalarni, tadbirkorlik amaliyotini tahlil qilish uchun nazariy materialdan foydalanish malakalarini egallash;
- vaziyatni baholash, asosiy ma’lumotlarni qidirish, tanlash madaniyatini shakllantirish;
- savol va so‘rovlarni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirish;



- harakatlar rejasini amalga oshirishda ko‘p qirrali yondashuvlarni ishlab chiqish malakalariga ega bo‘lish;
- turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish;
- vaziyatlarni har tomonlama tahlil qilish va rivojlantirish yo‘llarini bashorat qilish ko‘nikmalari hamda usullarini shakllantirish;
- konstruktiv tanqid qilish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Shuni ta’kidlash kerakki, mashg‘ulotlarda “Case” texnologiyasidan foydalanilganda bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘qitish metodlari qo‘llaniladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

### “Case” texnologiyasining metodologiyasiga kiritilgan o‘qitish usullari va shakllari

Immersion usuli	muammoli masalani o‘rganish va mashg‘ulot uchun o‘quv-ma’lumotlarni mustaqil tayyorlash
Akvarium texnikasidan foydalanish	munozarali masalani dastlabki muhokama qilishda erishilgan natijalarning keyingi taqdimoti
Aqliy hujum usuli	jamoaviy muhokama, uning davomida talabalar g‘oyalari ishlab chiqaruvchisi sifatida ishlaydi, bu ularning jamoada o‘zaro munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.
Taqdimot usuli	1. Vizuallashtirishning eng samarali vositalarini qo‘llash; 2. Auditoriyani faollashtirish va fikrmulohazalarni qo‘llab-quvvatlash.

Shunday qilib, professor-o‘qituvchi psixologiya fanlarini o‘qitishda Case texnologiyasidan foydalanishi bir tomonidan talabalarning individual faolligini rag‘batlantiradi va o‘rganish uchun ijobjiy motivatsiyani shakllantiradi. Shuningdek, passiv va loqayd talabalar sonini kamaytiradi hamda pixoloiya bo‘yicha bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash va ularda ko‘nikmalarni rivojlantirishning yuqori samaradorligini ta’minlaydi, muayyan shaxsiy fazilatlar va malakalarini shakllantiradi, boshqa tomonidan, professor-o‘qituvchiga o‘zini takomillashtirish, fikrlash va boshqacha harakat qilish imkoniyatini beradi, o‘zining ijodiy salohiyatini oshiradi.

Shuning uchun psixologiya fanlarni o‘rganishda “Case” texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Xulosa qilib aytganda, “Case” texnologiyasi muammoli vaziyatlarni tahlil qilish muammoli ta’limning tipik namunasi bo‘lganligi sababli, psixologik muammolarni yechishda samarali hisoblanadi. Shu bois, seminar mashg‘ulotlarida “Case” texnologiyasidan foydalanish talabalarning psixologik tafakkurini ma’lum darajada rivojlantirish imkonini beradi va bo‘lajak psixologiya o‘qituvchising kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida talabalarning psixologik ko’nikmalarini rivojlantirishning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Navoiy davlat pedagogika instituti “Pedagogika-psixologiya” ta’lim yo’nalishi talabalari hamda Profy Universty “Pedagogika-psixologiya” ta’lim yo’nalishi talabalari orasida olib borildi, talabalar tajriba va nazorat guruhiga ajratildi. Ushbu tajriba guruhiga ajratilgan talabalarga tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan texnogiyalar asosida dars, seminar hamda trening mashg‘ulotlarida foydalanildi. Nazorat guruhiga esa bu imkoniyat berilmadi. Tajriba-sinov ishlarining samaradorlik darjasini xi kvadrat kriteriyasidan foydalanib, matematik-statistik tahlili o’tkazildi. Mazkur kriteriyadan foydalanishda tanlanmalar uchun mos o‘rta qiymatlar  $\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 n_i X_i$ , tarqoqlik koeffitsiyentlarini

$D_n = \sum_{i=1}^4 \frac{n_i(x_i - \bar{X})^2}{n-1}$  formulalardan foydalanildi. Hisoblash natijasiga ko’ra, tajriba guruhining o’rtacha o’zlashtirish ko’rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan yuqori ekanligi, ya’ni 10,02 foizga oshganligi ma’lum bo’ldi.

**Xulosa va takliflar.** Taklif etilayotgan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining iqtisodiyot fanini o‘qitishda qo’llash lozim. Ushbu zamonaviy ta’lim texnologiyalari psixoogiyaning dolzarb muammoni oqilona hal qilishga qaratilganligi bilan samarali hisoblanib, bunda talabalarning mustaqil, ijodiy faoliyati doirasida amalga oshirishga qaratilgan bo’lib, bu bo‘lajak psixologlarning kasbiy faoliyatda muammoli vaziyatlarni hal etish ko’nikma va malakalarini egallashiga xizmat qiladi. Shuningdek, ta’lim darajasini, ko’nikma va malakalarini oshirishga qaratilganligi bilan samarali hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- [1]. Иванов Ю.А. Педагогические технологии в обучении географии. Учебно-методическое пособие. – Брест, 2008. – 169 с.
- [2]. Андреев В.И. Педагогика: учебный курс для творческого саморазвития. – Казань: Центр инновационных технологий, 2000. – 608 с.

- [3]. Носова И.В. Особенности работы в малых группах // Начальная школа плюс до и после. 2004. – № 6 – С. 69.
- [4]. Чиханова О.В. Групповая форма организации урока введения нового знания // Начальная школа плюс до и после. 2003. – №2. – 36 с.
- [5]. Романовская Е.В., Смирнова Ж.В., Бобышева Е.А., Лебедова Т.Е. Использование кейс-методов при преподавании экономических дисциплин, Московский экономический журнал, DOI 10.24411/2413-046X-2020-10328, №5, 2020 г., С. 613-618.
- [6]. Пометун О., Пирожниченко Ж.И. Сучасний урок. Інтерактивні технології навчання. – К.: Видавництво А.С.К., 2004. – С. 241.
- [7]. Михайлова Е.А. Кейс и кейс-метод: общее понятие //Маркетинг. – 1999. – №1. – С. 109-117.
- [8]. Бутылева Е.В. Кейс-технология как условие продуктивного обучения в условиях реализации ФГОС// [http://school26.my1.ru/kejs-tehnologii\\_na\\_urokakh\\_matematiki.pdf](http://school26.my1.ru/kejs-tehnologii_na_urokakh_matematiki.pdf).
- [9]. Лаврикова М.А. Применение кейсовых технологий на уроке математики// [Электронный ресурс] <https://multiurok.ru/files/primenenie-keisovykh-tehnologii-na-uroke-matema-1.html>